

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1154** taga o'sdi
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarni ning ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1141** taga oshgan.

2018 yilning yanvar-may oyida viloyatimizda 1601 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 461 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tutgatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,0 % ga oshgan hamda ularning soni 460 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 1189 ta (7,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16814 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Buxoro shahrida (32,4 %), G'ijduvon (10,5 %), Romitan (7,5 %) va Buxoro tumani (6,8 %) tumanlaida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	Birlik	jamiga nisbatan %	Birlik	jamiga nisbatan %
Buxoro viloyati bo'yicha	17717	100,0	16814	100,0
<i>tumanlar:</i>				
Olot	614	3,5	560	3,3
Buxoro	1316	7,4	1148	6,8
Vobkent	881	5,0	859	5,1
G'ijduvon	1901	10,7	1772	10,5
Kogon	915	5,2	852	5,1
Qorako'l	909	5,1	863	5,1
Qorovulbozor	327	1,8	318	1,9
Peshku	1080	6,1	1053	6,3
Romitan	1302	7,3	1268	7,5
Jondor	1190	6,7	1123	6,7
Shofirkon	1095	6,2	989	5,9
<i>shaharlar</i>				
Buxoro sh	5593	31,6	5439	32,4
Kogon sh	594	3,4	570	3,4

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 94,9 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,4 f.p. kamaygan

█ faoliyat ko'rsatayotganlar


█ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,3 % savdoda, 14,3 % sanoatda, 10,2 % qurulishda, 9,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 6,5 % tashish va saqlash, 1,2 % axborot va aloqa, 2,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,8 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-may holatiga 1601 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 40,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Buxoro shahrida (461 ta), Romitan (171 ta), G'ijduvon (132 ta) va Shofirkon tumanlarida (113 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (43 ta), Olot (57 ta) hamda Vobkent (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi boshqa turlarda (445 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (255 ta), sanoat (238 ta), savdoda (227 ta), tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (29 ta), tashish va saqlashda (47 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (46 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	1140	1601
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	269	255
Sanoat	263	238
Qurilish	129	199
Savdo	168	227
Tashish va saqlash	52	47
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	91	115
Axborot va aloqa	21	29
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	30	46
Boshqa turlari	117	445

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-1,4 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p.), tashish va saqlashda (-0,2 f.p.) axborot va aloqada (-0,1.), kamayganligi, buning natijasida boshqa faoliyat turlarida (+1,0 f.p), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,5 f.p), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p), qurilishda (+0,6 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+ -)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,7	3,7	-1,0
Savdo	21,3	22,7	-1,4
Axborot va aloqa	1,2	1,3	-0,1
Sanoat	14,3	14,2	+0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	9,8	9,3	0,5
Qurilish	10,2	9,6	0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	5,7	0,5
Tashish va saqlash	6,5	6,7	-0,2
Boshqa turlari	27,8	26,8	1,0

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 13744 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3023 ta, oilaviy korxonalar – 773 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 9563 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 25 tani va boshqalar 351 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 105 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 23 taga yoki 28,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 72 tasi qo'shma korxonalar, 33 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahar 63 ta (60,0 %), Vodkent tumani 9 ta (8,5 %) va Kogon tumanlari 7 ta (6,7 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Kogon shahri 2 ta (1,9 %), Qorovulbozor tumani 2 ta (1,9 %), G'ijduvon tumani 2 ta (1,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni, birlikda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 60 ta (57,1 %), savdoda 17 ta (16,2 %), boshqa turlarida esa 9 ta (8,6 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 2 ta (1,9 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 4 ta (3,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 8 ta (7,6 %) va qurilishda 5 ta (4,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 15 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11 taga ko'paygan yoki 3,7 baravarga oshgan.

Bunda, Eron Islom Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 3 ta, Rossiya Federativ Respublikasi—3ta, Koreya Respublikasi– 3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan va boshqa davlat rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 4 ta, savdoda 3 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 3 ta, qurilishda 2ta, yashash va ovqatlanishda 2 ta, sog'liqni saqlash 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 13618 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 4631 tasi (34,0 %) Buxoro shahriga, 1443 tasi (10,6 %) G'ijduvon, 1046 tasi (7,7 %) Romitan, hamda 940 tasi (6,9 foizi) Buxoro tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 13618 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3551 tasi (26,1 %) – savdoda, 2361 tasi (17,3 %) - sanoatda, 1686 tasi (12,4 %) - qurilishda, 1608 tasi (11,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1029 tasi (7,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1084 tasi (8,0 %) - tashish va saqlashda, 196 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, 380 tasi (2,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1723 tasi (12,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1364 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 24,1 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Buxoro shahrida (419 ta), Romitan (147 ta), G'ijduvon (109 ta) va Shofirkon tumanlarida (89 ta) tashkil etilgan. Eng kam Qorovulbozor (41 ta), Olot 46, Kogon shahar (57 ta), hamda Vobkent (62 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (255 ta), sanoatda (238 ta), savdoda (225 ta) va qurilishda (199 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (29 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (46 ta) hamda tashish va saqlashda (47 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da

■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

■ Sanoat

■ Qurilish

■ Savdo


■ Tashish va saqlash

■ Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

■ Axborot va aloqa

■ Sog'liqi saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


■ Boshqa tarmoqlar



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 811 tani tashkil etib, ulardan 773 tasi yoki 95,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **29,8 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 27,7 % yoki 214 tasi sanoat, 31,4 % yoki 243 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,6 % yoki 113 tasi savdo, 13,5 % yoki 104 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,2 % yoki 9 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 8 tasi tashish va saqlash, 2,3 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 7,5 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: F.Xakimova
(0371) 230-83-20,21**



**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**